O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi
№ 85
"___"_____2022 y.

"Tasdiqlayman"
O‘quv ishlari prorektori
_______ D.N.Bozorov
"___"_____2022 y.

# KO‘CHMAS MULK KADASTRI
# FANI SILLABUSI

| | | |
|---|---|---|
| Bilim sohasi: | 300 000 | Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari |
| Ta’lim sohasi: | 310 000 | Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 5311500 | Geodeziya, kartografiya va kadastr (qurilish ) |

Qarshi-2022

Ushbu fan sillabusi o'quv reja, ishchi o'quv reja va fan dasturi asosida tuzildi.

**Tuzuvchi:**
Qilichev Z.M. – "Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish" kafedrasi o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

G'ofirov M.J. – Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti "Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish" kafedrasi kata o'qituvchisi.

Eshonqulov R. – Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti "Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" kafedrasi mudiri.

Fan sillabusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining "Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish" kafedrasining 2022 yil 08 22 dagi 1 son yig'ilishida hamda "Geologiya va konchilik ishi" fakulteti Uslubiy Komissiyasining 2022 yil 08 27 dagi 1 son yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

Institut Uslubiy Kengashining 2022 yil 08 29 dagi 1 son yig'ilishi qarori bilan o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

**O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i:** **Sh.R.Turdiyev**

**Fakultet uslubiy komissiyasi raisi:** **M.M. G'ofirov**

**Kafedra mudiri:** **G'.N.Aliqulov**

**"Ko'chmas mulk kadastri" fani sillabusi**

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Fan (modul) kodi** KMK3306 | **O'quv yili** 2022-2023 | **Semestr** 6 | **ECTS krediti** 4 |
| **Fan (modul) turi** Majburiy | **Ta'lim tili** o'zbek | | **Haftalik dars soati** 4 |
| **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta'lim** | **Jami yuklama** |
| Ko'chmas mulk kadastri | 60 | 60 | 120 |

**O'qituvchi haqida ma'lumot**

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Kafedra nomi** | Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish | | |
| **O'qituvchilar** | F.I.SH. | Telefon nomeri | e-mail |
| **Ma'ruzachi** | Qilichev Zaynobiddin Mirzayevich | +998935791972 | zaynobiddinqilichev1972@gmail.com |
| **Amaliy mashg'ulot** | Qilichev Zaynobiddin Mirzayevich | +998935791972 | zaynobiddinqilichev1972@gmail.com |

## I.Fanning mazmuni

**Fanni o'qitishdan maqsad** – ko'chmas mulk obyektlari va subyektlari bilan bog'liq, ko'chmas mulk bozorida amalda bo'lgan texnik va iqtisodiy jarayonlar bo'yicha sistematik bilim berishdan iborat.

**Fanning vazifasi**- ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan mulk huquqi va boshqa huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish; miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olish; sifat va qiymat jihatidan baholash; kadastrga doir axborotni tizimga solish, saqlash va yangilab borish; kadastr obyektlarining holati haqida hisobotlar tuzish; Davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritish uchun tegishli

axborot taqdim etish; foydalanuvchilarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kadastrga doir axborot bilan ta'minlash materiallari va hujjatlarni rasmiylashtirishni talabalarga o'rgatishdan iborat.

## II. Fan o'qitilishining natijalari
## (shakllanadigan kompetentliklar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- ko'chmas mulk obyektlarini texnik xatlovdan o'tkazish, ko'chmas mulk obyekti soliqqa tortish maqsadida baholash, ko'chmas mulk obyektlari kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish, ko'chmas mulk obyektiga vujudga kelgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish va tegishli hujjatlarni rasmiylashtirishga oid ishlar haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak;
- fanning tegishli mavzulari bo'yicha texnik xatlov materiallarini tayyorlash va hisoblarni amalga oshirishni, chizma ishlarini bajarishni, ko'chmas mulk obyektini baholash hamda unga vujudga kelgan huquqni davlat ro'yxatiga olishni bilishi va ulardan foydalana olishi kerak;

ko'chmas mulk obyektlarini tavsiflash, kadastr ishlari va ko'rsatiladigan xizmatlarni moliyalash, normativ huquqiy hujjatlar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

## III. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar(mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar

Yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari dasturni interfaol usullarda o'zlashtirishni taqazo qiladi. Bunda asosiy e'tibor auditoriya mashg'ulotlarida va mustaqil tayyorgarlikda o'zlashtiriladigan chuqurlashtiriladigan nazariy bilimlarga hamda ob'ektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyoqarashni shakllantirishda ma'ruza mashg'ulotlariga katta o'rin ajratiladi.

Dastur materiallarini o'zlashtirish to'rt xil:

- muammoli mavzular bo'yicha;
-mustaqil o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan bo'limlar bo'yicha;
- ta'lim oluvchilarda alohida qiziqish uyg'otuvchi bo'limlar bo'yicha;
- ma'ruzalarni interfaol usulda o'qitish yo'li bilan;
-mustaqil ta'lim olish va ishlash, kollekviumlar va munozaralar jarayonida o'zlashtiriladigan bilimlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba adabiyotlar, internet materiallari va meyoriy hujjatlar bilan ishlashni uddalashni namoyon qilishi, auditoriya mashg'ulotlari paytida qabul qilingan ma'lumotlarni mushohada qilish va mustaqil ijodiy qarorlar qabul qila olish qobiliyatlarini ko'rsatishi zarur.

Fanni o'zlashtirishda masofadan o'qitish (modul platformasi), darslik, o'quv qo'llanmalari va ma'ruzalar matnlarining elektron versiyalari, ma'ruzalar o'qish, video-audio mashg'ulotlar va elektron resruslar (Internet tarmog'i orqali) dan foydalaniladi.

Dastur talabalar bilimini reyting-nazoratidan foydalanadigan o'quv jarayonini tashkil qilishning kredit-modul tizimi tamoyillari asosida amalga oshadi.

## IV. Fan tarkibi (ma'ruza mashg'ulotlari)

| № | Mavzular | Qisqacha mazmuni | soat |
|---|---|---|---|
| 6-semestr | | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | Ko'chmas mulk kadastrini yuritishning nazariy va huquqiy asoslari | Ko'chmas mulk tushunchasi. Ko'chmas mulk kadastri mazmuni va mohiyati. Ko'chmas mulk kadastrini yaratish va yuritishning normativ huquqiy asoslari. | 2 |
| 2 | Ko'chmas mulk obyektlarining asosiy belgilari | Ko'chmas mulk obyektlariga kiruvchi obyektlarning o'ziga xos xususiyatlari. Kondominium. Ko'chmas mulk obyektlarining mohiyati. | 2 |
| 3 | Ko'chmas mulk obyektlarining klassifikatsiyasi | Ko'chmas mulk obyektlarini klassifikatsiyalash tizimi. Aholi punktlari yerlarining klassifikatsiyasi. Ko'p yillik dov-darxtlarning klassifikatsiyasi. Bino va inshootlarning klassifikatsiyasi | 2 |
| 4 | Yer uchastkalari ko'chmas mulk obyekti sifatida | Yer uchastkasining ko'chmas mulk obyekti sifatida mohiyati. Yer fondi toifalari. Yer munasobatlari. Yerlarning miqdori va sifatini hisobga olish. | 2 |
| 5 | Ko'p yillik dov-daraxtlar ko'chmas mulk obyekti sifatida | Ko'p yillik dov-daraxtlar ko'chmas mulk obyekti sifatida mohiyati. Ko'p yillik dov-daraxtlarning turlari. Ko'p yillik dov-daraxtlarning miqdori va sifatini hisobga olish. | 2 |
| 6 | Bino va inshootlar ko'chmas mulk obyekti sifatida | Turar uy-joylar. Binolar. Inshootlar. Tarixi va me'moriy yodgorliklar bo'lgan bino va inshootlar. Tijorat ko'chmas mulk obyektlari. Tashkilot va korxonalar ko'chmas mulk obyekti sifatida | 2 |
| 7 | Ko'chmas mulk kadastrini yaratish va yuritishni boshqarish | Respublika miqiyosida ko'chmas mulk kadastrini yaratish va yuritish. Qaraqolpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqiyosida ko'chmas mulk kadastrini yaratish va yuritish. Tumanlar va shaharlar miqiyosida ko'chmas mulk kadastrini yaratish va yuritish. | 2 |
| 8 | Ko'chmas mulk kadastrini yuritish | Ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan mulk huquqi va boshqa huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish. Ko'chmas mulk obyektlarining miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olish. Ko'chmas mulk obyektlarini sifat va qiymat jihatidan baholash. | 2 |
| 9 | Ko'chmas mulk obyektlarini texnik inventarizatsiyadan o'tkazish | Ko'chmas mulk obyektlarini texnik inventarizatsiyadan o'tkazish ishlarini tashkil etish va uni o'tkazish tartibi. Yer uchastkasini texnik inventarizatsiyalash. | 2 |
| 10 | Ko'chmas mulk obyektlarini baholash va qayta baholash | Ko'chmas mulk obyektlarini baholash va qayta baholashning normativ-huquqiy asoslari. Yer uchastkalarini sifat va qiymat jihatidan baholash. Bino va inshootlarni soliqqa tortish maqsadida baholash va qayta baholash. | 2 |
| 11 | Ko'chmas mulk obyektlariga kadastr hujjatlari | Ko'chmas mulk obyektlariga kadastr yig'majildini rasmiylashtirish tartibi. Yer uchastkalariga kadastr pasportini rasmiylashtirish. Bino va inshootlarga kadastr pasportini rasmiylashtirish. | 2 |
| 12 | Ko'chmas mulk bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish | Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni va u haqda tuzilgan bitimlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi. Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish. | 2 |
| 13 | Tuman (shahar) kadastr daftarlari va reyestrlarini yuritish | Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar va u haqda tuzilgan bitimlarning davlat reyestri. Tuman (shahar) yer kadastri daftarini yuritish. Davlat reyestrlarni yuritish. | 2 |
| 14 | Ko'chms mulk obyektlari kadastriga doir axborotlar bazasini yaratish | Ko'chmas mulk obyektlarining holati haqida hisobotlar tuzish. Davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritish uchun tegishli axborotlarni taqdim etish. Ko'chmas mulk kadastrga doir axborotlarni tizimga solish, saqlash va yangilab borish. | 2 |
| 15 | Kadastr ishlari va xizmatlarini moliyalashtirish | Ko'chmas mulk davlat kadastrini yuritishda bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlar tarkibi. Kadastr | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | ishlari va xizmatlarining narx birligi. | |
| Jami: | | | 30 |

**Amaliy mashg'ulotlar**

| № | mavzular | soat |
|---|---|---|
| | **6-semestr** | |
| 1 | Ko'chmas mulk kadastrini yaratish va yuritishda qo'llaniladigan normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishish. | 2 |
| 2 | Ko'chmas mulk obyektlarining asosiy belgilarini o'rganish. | 2 |
| 3 | Aholi punktlari yerlarining klassifikatsiyasini o'rganish | 2 |
| 4 | Ko'p yillik dov-darxtlarning klassifikatsiyasini o'rganish | 2 |
| 5 | Bino va inshootlarning klassifikatsiyasini o'rganish | 2 |
| 6 | Yerga bo'lgan munasobatlarining tahlili. | 2 |
| 7 | Yerlarning miqdori va sifatini hisobga olish tartibini o'rganish | 2 |
| 8 | Ko'chmas mulk kadastrini yaratish va yuritishni boshqarish tartibi bilan tanishish. | 2 |
| 9 | Ko'chmas mulk obyektlarining miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olish tartibi bilan tanishish. | 2 |
| 10 | Ko'chmas mulk obyektlarining holati haqida hisobotlar tuzish tartibi bilan tanishish | 2 |
| 11 | Foydalanuvchilarni ko'chmas mulk kadastrga doir axborot bilan ta'minlash tartibi bilan tanishish | 2 |
| 12 | Yer uchastkalarini texnik inventarizatsiyadan o'tkazish tartibini o'rganish. | 2 |
| 13 | Ko'p yillik dov-daraxtlarni texnik inventarizatsiyadan o'tkazish tartibini o'rganish. | 2 |
| 14 | Ko'chmas mulk obyektlarini baholash va qayta baholashda qo'llaniladigan normativ-texnik hujjatlari bilan ishlashini o'rganish | 2 |
| 15 | Yer uchastkalariga kadastr pasportini rasmiylashtirish tartibini o'rganish | 2 |
| **Jami:** | | **30** |

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**V. I. Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar.**

Fan bo'yicha laboratoriya ishlari namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

**V. II. Kurs loyihasini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar.**

Fan bo'yicha kurs ishlari namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan

**VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1.Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;

2.Kurs ishini tayyorlash;

3.Ko'chmas mulk kadastrining tashkiliy-huquqiy va boshqaruv shakllari bilan tanishish;

4.Ko'chmas mulk kadastrini yaratish va yuritish bo'yicha qonunlar va meyoriy hujjatlar tarkibi bilan tanishish;

5.Ko'chmas mulk obyektlariga kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish jarayonlari bilan tanishish;

Ko'chmas mulk obyektlariga vujudga kelgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi bilan tanishish.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.uchastkalarini berish mexanizmlari.

**VII. Talabalar bilimini baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talablar**

Fanga oid nazariy materiallar ma'ruza mashg'ulotlarini ma'ruzalarda ishtirok etish va kredit-modul platformasi orqali ma'ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalga oshiriladi.

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish va o'zlashtirish mashg'ulotlarga to'liq ishtirok etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

Mustaqil ta'lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajarish ( test, referat va boshqa usullarda) bajariladi.

Fan bo'yicha talalabalar test usulida oraliq nazorat va og'zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiradilar.

Talabalar bilimi O'zbekiston Respublikasi OO'MTVning 2018 yil 9 avgustdagi 9-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" asosida baholanadi.

**Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:**

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

*Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.*

Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o'zlashtirgan talalabalarga tegishli ta'lim yo'nalishi (magistratura mutaxassisligi) o'quv rejasida ushbu fanga ko'rsatilgan kredit beriladi.

## VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

### Asosiy adabiyotlar

1. Bobojonov A.R., Rahmonov Q.R., G'ofirov A.J. Yer kadastri. – T.:TIMI, 2008. – 202 b.

2. Juraqulov D.O., Yarmatova D.S. Davlat yer kadastri. – T.: SamDAQI, 2019. – 300 b.

3. Aliqulov G'.N., Jo'raqulov O.D., Niyazov V.R. "Yer uchastkasi va bino-inshootlarga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish" O'quv qo'llanma. Qarshi, 2016. -187 b

4. Juraqulov D.O. Yer va bino inshootlar huquqi. – T.: SamDAQI, 2019. – 315 b.

5. Thomas M. Lillesand, Ralph W. Kiefer, Jonathan W. Chipman. Remote sensing and image interpretation. Sixth edition – Chaudhary Press (India), 2016. – 754 p.

### Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. "O'zbekiston".2016 yil.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 maydagi «Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida nazoratni kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlari yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-5065-son farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi "Yer kodeksi".

4. O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 28 avgustdagi "Davlat yer kadastri to'g'risida" gi Qonuni.

5. Juraqulov D.O., Pirnazarov I.M., Niyazov V.R., O'roqov O.A. Kadastr

xizmatidagi geodezik ishlar. – T.: fan va tenika, 2016. – 290 b.

6. Juraqulov D.O., Yarkulov Z.R., Burxonov T.S. Yer huquqi va kadastri. – Samarqand: SamDAQI, 2019. – 328 b.

7. Sizov A.P.Zemleustroystvo i kadastri. - M.: MIIGAiK, 2016. – 82s.

8. Rustamboyev M.H., va boshkalar. "Yer xuquqi". Darslik. Toshkent davlat yuridik instituti, 2002 y.

9. Negmatov A. "Yer xuquqi". O'quv qo'llanma. Toshkent Islom universiteti 2001 y.

**Axborot manbaalari**

1. http://www. stroy.ru
2. www.lex.uz- O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. http://www.rambler.ru
4. www.kadastr.ru
5. http://www.gisinfo.ru/edu/edu.htm
6. Panorama@gisinfo.ru
7. www.gisinfo.ru